



**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# **TIBBIYOTDA YANGI KUN**

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EiSSN 2181-2187

**5 (79) 2025**

## **Сопредседатели редакционной коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЪЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОЕВ  
С.А. ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
Б.З. ХАМДАМОВ  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

## **ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

### **РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**5 (79)**

**2025**

*май*

[www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)

<https://newdaymedicine.com> E:

[ndmuz@mail.ru](mailto:ndmuz@mail.ru)

Тел: +99890 8061882

УДК 616-005.1-08

## LAGOHILUS O'SIMLIGINING TARKIBI VA FOYDALI JIHATLARI (Adabiyotlar sharhi)

Aminova Nafisa Narzullayevna <https://orcid.org/0009-0008-6687-0064>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh.

A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Rezyume

*Hozirgi davrda zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh o'simliklar bilan davolash keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Butun Sharq mamlakatlaridagi kabi, Yevropada ham o'simliklar tarkibidan yuqori biologik faollikka ega bo'lgan moddalar va ular asosida yangi dori vositalarning yaratilishi tez fursatda rivojlanmoqda. Shunday yuqori biologik xususiyatga ega bo'lgan Lagohilus o'simligi juda keng tarqalgan va istiqbolli yuqori bo'lgan dorivor o'simliklarga kiradi. Lagohilus o'simlikning tarkibidan ajratilgan tabiiy birikmalar faoliyati, ulardan tibbiyot amaliyotida qo'llanilishi asosiy o'rin tutadi.*

*Lagohilusning asosiy tarkibiy qismida aynan vitamin C, K, P suvda va yog'da eruvchi vitaminlar bo'lishi bu o'simlikning gemostatik xususiyatini ko'proq namoyon etadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda bemorlarda vitamin C,K,P lar yetishmasligi ko'proq uchrab milklarning qon ketishi kuzatilmoqda. Shu sababli aynan milklarning qon ketishida Lagohilus o'simlikning samaradorligi yuqori hisoblanadi. O'ning asosiy ta'siri gemostatik hisoblanadi. Ushbu xususiyat tufayli o'simlik urologik amaliyotda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'simlikning sedativ va antigipertenziv xususiyatlari kashf etilgan.*

*Bu maqolada lagohilus o'simligining nafaqat gemostatik xususiyatlari, balki uning nevrologik, yallig'lanishga qarshi, oshqozon-ichak trakti kasalliklaridagi ta'sirlari haqida ma'lumotlar berilgan*

*Kalit so'zlar: Gemopoez, lagohilus, Lagochilus inebrians, gemostatik o'simliklar, lagolipid, o'simlik tibbiyoti*

## СОСТАВ И ПОЛЬЗА РАСТЕНИЯ ЛАГОХИЛУС

Аминова Нафиса Нарзуллаевна

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г.

Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Резюме

*В настоящее время лечение лекарственными растениями широко применяется в современной медицине. Как и во всех странах Востока, в Европе быстрыми темпами развиваются вещества с высокой биологической активностью из состава растений и создание новых лекарственных средств на их основе. Растение Lagohilus, обладающее столь высокими биологическими свойствами, является одним из наиболее распространенных и перспективных лекарственных растений. Первостепенное значение имеет активность природных соединений, выделенных из состава растения зайца, и их использование в медицинской практике.*

*Тот факт, что основной компонент лагохилуса содержит витамины С, К, Р, являющиеся водо- и жирорастворимыми витаминами, в большей степени свидетельствует о кровоостанавливающих свойствах этого растения. Поэтому в настоящее время кровоточивость десен чаще наблюдают у пациентов с недостатком витаминов С, К, Р. По этой причине эффективность растения Lagohilus высока при кровоточивости десен. Основное действие травы – кровоостанавливающее. Благодаря этому свойству растение широко используется в урологической практике. Кроме того, обнаружены седативные и антигипертензивные свойства растения*

*В данной статье представлена информация не только о кровоостанавливающих свойствах растения зайчихилуса, но и о его влиянии при неврологических, противовоспалительных заболеваниях, заболеваниях желудочно-кишечного тракта*

*Ключевые слова: кроветворение, лагохилус, Lagochilus inebrians, кровоостанавливающие растения, лаголипид, фитотерапия*



## COMPOSITION AND USEFUL ASPECTS OF THE LAGOHILUS PLANT

Aminova Nafisa Narzullayevna

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1  
Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Resume

*Currently, treatment with medicinal plants is widely used in modern medicine. As in all Eastern countries, in Europe, the development of substances with high biological activity from plant components and the creation of new medicines based on them is rapidly developing. The Lagohilus plant, which has such high biological properties, is one of the most widespread and promising medicinal plants. The activity of natural compounds isolated from the Lagohilus plant and their use in medical practice play a key role.*

*The main component of Lagohilus is the presence of vitamins C, K, P, water- and fat-soluble vitamins, which further demonstrates the hemostatic properties of this plant. Therefore, currently, patients are more likely to have a deficiency of vitamins C, K, P, and bleeding gums. Therefore, Lagohilus is considered to be highly effective in bleeding gums. The main effect of the herb is hemostatic.*

*Due to this property, the plant is widely used in urological practice. In addition, the sedative and antihypertensive properties of the plant have been discovered. This article provides information not only on the hemostatic properties of the Lagohilus plant, but also on its effects in neurological, anti-inflammatory, and gastrointestinal diseases*

**Keywords:** Hemopoiesis, lagohilus, Lagochilus inebrians, hemostatic plants, lagolipid, herbal medicine

### Dolzarbligi

Bugungi kunda dunyo miqyosida dorivor o'simliklarning biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularni ko'paytirish biologiyasi, foydali birikmalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilmasi va biologik faolligini aniqlash, shuningdek, tibbiy amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1.6.10]. Bu boradagi tadqiqotlar natijasida o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida samarali, ekologik xavfsiz va inson organizmiga kam zarar yetkazuvchi dori vositalari ishlab chiqilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham xalq tabobati an'alarini tiklash, rivojlantirish va amaliy tibbiyotda undan keng foydalanish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar asosida xalq tabobati bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu orqali o'simliklarning foydali qismlarini ajratib olish, ularni dori vositalariga aylantirish va mavjud farmatsevtika sohasini tabiiy resurslar asosida boyitish maqsadi qo'yilgan.

O'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar, xususan terpenoidlar va ularning hosilalari, yuqori biologik faollik namoyon etadi. Ushbu sinfga mansub moddalarning farmakologik xususiyatlari keng o'rganilgan bo'lib, ularning yallig'lanishga qarshi, antiseptik, antimikrob, spazmolitik va tinchlantiruvchi ta'siri mavjudligi aniqlangan [3.4].

Lagochilus turkumiga mansub o'simliklar o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu turga kiruvchi ba'zi turlar uzoq yillardan buyon xalq tabobatida turli xil qon ketish holatlarida samarali vosita sifatida qo'llanilib kelinadi [5.9]. Mazkur o'simliklar, tabiiy manbalardan olinadigan dori vositalari sifatida, amaliy tibbiyotda alohida o'rin tutadi.

Shunga qaramay, mavjud qadimiy manbalar va xalq tabobatiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lagohilus o'simligining qadimda dorivor maqsadlarda qo'llanilganligi haqida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Bu o'simlikning O'zbekiston hududida keng tarqalganiga qaramay, qadimgi tabiblar uning shifobaxsh xususiyatlariga yetarlicha e'tibor qaratmaganligi hayratlanarli holatdir.

Zamonaviy ilm-fan esa ushbu o'simlikka nisbatan so'nggi 20–30 yil ichida katta qiziqish bildirib boshladi. Ilmiy tadqiqotlar davomida lagohilus tarkibida biologik faol moddalarning mavjudligi aniqlanib, ayniqsa farmakologiya va fitoterapiya yo'nalishlarida uning dorivor xususiyatlarini chuqur

o'rganishga kirishildi [7.13]. Bu moddalarning sedativ, spazmolitik va qon ketishni to'xtatuvchi xususiyatlari klinik tajribalarda tasdiqlangan.

O'zbekiston florasida lagohilus turining taxminan **13 ta** turi mavjud bo'lib, ular yovvoyi holatda keng tarqalgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda bu o'simlikni sun'iy sharoitda yetishtirishga qaratilgan tadqiqotlar ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu esa lagohilusni dorivor xomashyo sifatida sanoat miqyosida yetishtirish va undan dori vositalari tayyorlash imkonini kengaytiradi.


**Tadqiqot maqsadi:** Lagohilus o'simligining tarkibi va foydali jihatlarini o'rganish, uni amaliyotga tatbiq qilish.

### Material va usullar

O'rta Osiyoda juda keng tarqalgan o'simlik. So'nggi paytlarda bu o'simlikka uning dorivor xususiyatlari kashf etilishi munosabati bilan katta qiziqish paydo bo'ldi. [3. 10] Qadimgi va xalq tabobati bo'yicha biz uchun mavjud bo'lgan adabiyotlarda biz ushbu o'simlikdan dorivor maqsadlarda foydalanish tavsifini uchratmadik. Bunday keng tarqalgan o'simlik qadimgi tabiblarni qiziqtirmaganligi ajablanarli. Zamonaviy ilmiy tibbiyotda lagohilus so'nggi 20-30 yil davomida qo'llanila boshlandi. [6.9.]

Lagohilus o'simligining kimyoviy tarkibida vitamin K1, 0,6-1,97 % lagoxilin, 0,67 % flavonoid glikozidlari, 44-77 mg % askorbin kislota, 6-7 % organik kislotalar, 5-10 mg % karotin, 9,66-12,42 % smola, 2,58-2,78 % oshlovchi va boshqa moddalar hamda kalsiy va temir tuzlari bo'ladi. Lagohilus bargi tarkibida lagoxilin, 0,03 % efir moyi, 11-14 % oshlovchi moddalar, organik kislotalar,

7-10 mg % karotin va 77-100 mg % vitamin C bo'ladi. [4.9.11]



Qadimgi tibbiyotda o'simlikdan foydalanish haqida ma'lumot yo'q. O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston xalq tabobatida lagohilus gemostatik, tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi [3.6.13]

O'simlikning dorivor xususiyatlari keng. Ayniqsa, ko'pincha o'simlik qon ketish uchun gemostatik sifatida ishlatiladi O'simlikning tarkibidagi taninlar, k vitamin qon tomirlari devorini mustahkamlaydigan va qon trombositlari sonini ko'paytiradigan elementlarning mavjudligi bilan bog'liq. O'tning gemostatik xususiyatlari urologik amaliyotda keng qo'llaniladi [5.10.]

### Natija va tahlillar

Nevrozlarni davolashda lagohilus asosidagi preparatlarni qo'llash orqali ijobiy klinik natijalarga erishilmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu o'simlik preparatlari markaziy asab tizimidagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlari o'rtasidagi muvozanatni me'yorlashtirish xususiyatiga ega. Shuningdek, lagohilus vestibulyar analizator faoliyatini susaytirish xususiyatiga ega bo'lib, bu jihati uni migren kasalligini davolashda muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi.

Lagohilus preparatlarining sedativ (tinchlantiruvchi) ta'siri tufayli qon bosimini pasaytiruvchi xususiyatlari ham kuzatilgan [2.9.12]. Shuningdek, lagoxilin moddasi oshqozon-ichak traktining harakatchanligini yaxshilaydi. Uning tarkibida mavjud bo'lgan taninlar esa oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralarini davolashda samarali ta'sir ko'rsatgan [3.5].

Lagohilus ekstraktlari yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Lagohilus gullarining efir moyi aniq antibakterial xususiyatlarga ega.[6.12.]

## Xulosa

Yuqoridagi tahlillar va ilmiy manbalar asosida xulosa qilish mumkinki, lagohilus o'simligi farmakologik jihatdan istiqbolli dorivor o'simliklardan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida xalq tabobatida keng qo'llanilmagan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu o'simlik tarkibida biologik faol moddalarning mavjudligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, uning sedativ, qon to'xtatuvchi, spazmolitik, va oshqozon-ichak tizimiga foydali ta'siri klinik tajribalar orqali isbotlangan.

Lagohilus o'simligi O'zbekiston hududida keng tarqalgan bo'lib, uning bir necha turi aniqlangan. Shuningdek, sun'iy sharoitda yetishtirish bo'yicha olib borilgan muvaffaqiyatli tajribalar uni dorivor xomashyo sifatida sanoat miqyosida ishlatish imkoniyatini yaratmoqda. Mamlakatda xalq tabobatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati ham ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga keng yo'l ochmoqda.

Shu boisdan, kelgusida lagohilus asosidagi preparatlarni yanada chuqur o'rganish, ularning klinik samaradorligini baholash va amaliy tibbiyotga keng joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akopov I. E. // Gemostatik o'simliklar // Toshkent, tibbiyot 1977.
2. Allazov S. A., Gafarov R. R., Kodirov S. K., Mansurov U. M., Allazov X. S., Hamroyev G. A. // Lagohilus urologik amaliyotda // Академический журнал G'arbiy Sibir akademik jurnali 2015, 11, 4(59), 74-76.
3. Derevyanko L. D. // ekssudativ diatezlar uchun Lagoxilus terapiyasi // Кубан сессии Кубанского мед in-ta sessiyalari, Krasnodar 1962, 24-25.
4. Zaynutdinov U. N., Dalimov D. N., Matchanov A. D., Islomov A. X., Tlegenov R. T., Bozorova N. X., Sobirova F. A. // Lagochilus inedriansning yovvoyi va madaniy shakllarini qiyosiy o'rganish *Lagochilus inedrians* // Химия Rast kimyosi. xom ashyo. 2011, 2, 189-190.
5. Karomatov I. J. // Oddiy dorilar // Buxoro 2012.
6. Lovkova M. ya., Rabinovich A. M. va boshqalar. // nima uchun o'simliklar M. ni davolashadi // fan 1990 yil.
7. Mansurov U. M. // Сравнительная оценка методов простата аденомектомии с последующим удалением аденомы // Вестник - аспирант 2012, 50, 1, 350-354.
8. Mansurov U. M., Allazov S. A. // Гемостаз при аденомэктомии простаты lagohilus infuzioni bilan prostata adenomektomiyasida gemostaz лагохилуса // -doktorant 2012, 51, 2, 502-508.
9. Tajibaev T. T. // lagohilusning suv infuzioni bilan terining ba'zi orik kasalliklarini davolash лагохилуса- Asal // O'zbekiston temiryo'llari 1962, 10, 54-56.
10. Eshibayev A. A., Aymenova J. E., Matchanov A. D., Islomov A. X. // makro - va mikroelementlar tarkibini qiyosiy o'rganish natijalari Lagochilus inebrians va Lagochilus setulosus // - gazeta xazinas biologik Seriya 2015, 64, 2/1.

**Qabul qilingan sana 20.03.2025**